

JAHON TAJRIBASIDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

E.Amirov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

B.Nazarov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

O.N.Xaitov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

Annotatsiya:

Ushbu tezisda iqtisodiy taraqqiyotga erishishda investitsiyalarning o'rnini, inson kapitalini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari, inson kapitaliga investitsiyalar kiritish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish mumkinligi, yurtimizda sug'urta bozorini rivojlantirishda inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning o'rnini, inson kapitaliga investitsiyalar kiritish orqali yurtimizga ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishi mumkinligi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy taraqqiyotga erishish, inson kapitali, investitsiya, inson resurslari, sug'urta tashkiloti, investitsiya faoliyati, mutaxassis, institutsional investorlar.

“Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya — bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi”⁴¹, deya ta'kidlagan edi Prezidentimiz o'z ma'ruzalarining birida. Haqiqatan ham, iqtisodiyotda investitsiyalarni keng miqyosda jalb etishga erishish ko'plab sohalar, tarmoqlar hamda hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishi vatadbirkorlikning jadal rivojlanishiga ulkan poydevor bo'lib xizmat qiladi.

“Davlatimiz rahbarining “Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yana-da rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni hammamlakatda investitsiya salohiyatini rivojlantirishga qaratilgani bilan o'ta ahamiyatlidir.

Unga ko'ra, eksport salohiyatini yana-da kengaytirish, investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliyatashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalari hamda oliy darajadagi tashriflar davomida imzolangan hujjatlarni amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritalari”ga kiritilgan tadbirlarning ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash maqsadida Eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasining

vazifalari va tarkibi yangilandi.

Endilikda Hukumat komissiyasi Prezidentimizning hududlarga tashriflari yakunlaribo'yicha qabul qilingan bayonnoma topshiriqlarining eksport, investitsiyalar, hududiy sanoatni rivojlantirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hamda boshqa tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi qismining ijrosini ta'minlaydi."⁴²

Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda investitsiyalardan samarali foydalanish borasida mamlakatimizda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bu borada inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar alohida ahamiyatga ega. Chunki rivojlangan davlatlar shu narsani isbotladiki, aql to'yinmaguncha, qorin to'ymas ekan. Och odamga har kuni baliq berilsa, u shunchaki taomlanadi. Shu bilan bir qatorda baliq berayotgan tomonga tobe ham bo'lib qoladi. Ammo och odamga biroz investitsiya kiritib, unga baliq tutishni o'rgatsak, u o'zini ochlikdan qutqaradi. Shu bilan bir qatorda boshqalarning ham qornini to'yg'aza oladi. Rivojlanishning kiyingi jarayonlarida esa, u baliq ovlashning yangicha metodlarini o'ylab topadi va hattoki, qarmoqni ham o'zi yasay boshlaydi.

Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalarning qaytartibda tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblangan inson kapitali ham unga mos bo'ladi. Inson kapitali rivoji shaxsning ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va tabiatiga bevosita bog'liq. Inson aql-idrok sohibi bo'lgani bois, real dunyodagi voqealarni tushunadi, ilmu tafakkuri, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi. Inson kapitalining yuksalishiga uni o'rab turgan ijtimoiy muhitda ro'y berayotgan jamiki voqealar ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda innovatsion inson kapitali yaratish uchun mamlakatning har bir oilasi va unda tug'ilgan farzandlarni kichik yoshidan boshlab bilim olishga yo'naltirish, qalbida ilmga havas, mehnatga muhabbat uyg'otish, ularni eng yangi texnologiyalar, jahon standartlari darajasidagi darslik va qo'llanmalar bilan o'qitish, o'rgatish, o'z sohasining yetuk mutaxasisi qilib tayyorlash zamon talabi bo'lib bormoqda.

Davlatlarning qashshoqligi shunchaki pul yo'qligini anglatmaydi. Bilimlar jamiyatdagi bor imkoniyatlardan foydalanishni, ko'nikma-malakalar esa ijtimoiy taraqqiyot va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Bu hodisa doimiy ravishda ta'limni moliyalashtirib borishni taqozo etadi. Bu esa, inson kapitali darajasini bir nechta usulga asoslanib baholash mumkin ekanligini ko'rsatadi. An'anaga ko'ra, iqtisodchilar buni ko'proq ta'lim olgan odamlarning daromadi bilan hisoblashadi. Tadqiqotlar har bir qo'shimcha ta'lim yili inson daromadini o'rtacha 10 foiz oshirishini isbotladi. Ta'limga kiritiladigan sarmoyalar ham jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi. Aksariyat mamlakatlarda nisbatan o'ziga to'q oilalarda tug'ilgan farzandlar bolalikdanoq keng imkoniyatlardan foydalanishni boshlaydiva u butun umri davomida qator afzalliklarni, qulayliklarni qo'lga kiritadi.

Aksincha, nochor oilalar farzandi shunday imkoniyatlardan bebahra qoladi.

Inson kapitali uchun maxsus element sifatida ta'lim belgilanadi va uning asosiy qismlari to'rt komponent birlashmasidan – madaniy va etnik xususiyatlar, umumiy ta'lim, kasb-hunar ta'limi, asosiy malakadan tashkil topadi. Ta'limga yo'naltirilgan investitsiya nafaqat mamlakatni rivojlantirishning maxsus strategiyasi, balki inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitali takomillashib, moddiy farovonlik va sog'lom turmush tarziga erishiladi. Inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Qobiliyat, bilim, ko'nikma va tajriba har bir yoshning shaxsiy mulkidir.

Shunday qilib, Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar inson resurslaridan samarali foydalanishning muhim omili ekanligini anglab yetdik. Buning amaliy

ifodasi sifatida har bir sohada olib borilayotgan islohotlarni alohida takidlab o'tishim lozim.

Men O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan sug'urta kompaniyalaridan birining hodimi sifatida aynan, sug'urta tashkilotlarida inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Bayon etilayotgan fikrlarimning huquqiy asosi sifatida 23.11.2021- yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining " Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunini alohida takidlab o'tmoqchiman. Ushbu qonunning 14-moddasiga ko'ra "sug'urta (qayta sug'urta) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishga "⁴³ huquq berilgan. Buning mazmuni shundan iboratki, har qaysi sug'urta kompaniyasi iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishni istasa, kompaniya tarkibidagi mutaxassislarga investitsiya kiritgan holda, inson resurslarini rivojlantirish orqali kompaniya ham rivojlanishi mumkin.

Ushbu qonunning amaliy ifodasi sifatida, kompaniyalarning o'z hisobidan hodimlarini rivojlangan davlatlarga ularning tajribasini o'rganish uchun yuborayotganlarini misol tariqasida keltirishim mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, iqtisodiy taraqqiyotga erishishda investitsiyalardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Investitsiyalar to'g'ri yo'naltirilmasa, iqtisodiyot rivojlanmaydi. Demak, investitsiyalarni nafaqat iqtisodiyot tarmoqlariga, balki inson kapitaliga, ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish o'ta muhimdir. Zero, mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda investitsiyalarning ahamiyati beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28dekabrda Oliy Majlis deputatlariga yo'llagan murojaatnomasi
2. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"
3. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunini
4. <https://lex.uz/docs/-5739117>